JINOIY FAOLIYATDAN OLINGAN DAROMADLARNI LEGALLASHTIRISHGA QARSHI KURASHISHNING ILG‘OR XORIJ TAJRIBASI

Abdulla Abdixalil o‘g’li SHAMSHIYEV
magistrant
O‘zbekiston respublikasi huquqni muhofaza qilish akademiyasi
Toshkent, O‘zbekiston
e-mail: abdullashamshiev@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashishning xorijiy davlatlar tajribasi, xalqaro miqiyosdagi huquqiy standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish, huquqiy standartlarning o‘ziga xos tahlili yoritilgan, xulosa va takliflar ilgari surilgan.

Tayanch so‘zlar: jinoiy daromad, jinoiy aktiv, legallashtirish, jinoiy aktivlarni moliyalashtirish, jinoiy aktivlarni qaytarish, pul yuvish.

ПЕРЕДОВОЙ ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ БОРЬБЫ С ОТМЫВАНИЕМ ДЕНЕГ

Абдулла Абдухалил угли ШАМШИЕВ
магистрант
Правоохранительная академия Республики Узбекистан
Ташкент, Узбекистан
e-mail: abdullashamshiev@gmail.com

Аннотация

В статье представлен опыт зарубежных стран по противодействию легализации доходов, полученных от преступной деятельности, имплементации правовых стандартов международного масштаба в национальное законодательство, специфическому анализу правовых стандартов, выводам и предложениям.

Ключевые слова: преступный доход, преступный актив, легализация, финансирование преступных активов, возврат преступных активов, отмывание денег.

Har bir sohani isloh qilish oldidan albatta, mazkur yangilikning joriy etish istiqbollari va undan kutilayotgan natija hamda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavf-hatarlar tahlil etiladi. Xususan, xalqaro miqiyosdagi huquqiy standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish jarayoni ham o‘ziga xos tahlillar asosida amalga oshadi. Bunday jarayonda eng to‘g‘ri yo‘l – bu sohaga oid xorij amaliyoti hisoblanadi. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga oid xalqaro normalar XX asr oxirlarida ko‘plab mamlakatlar qonunchiligiga

implemintatsiya qilindi. Bunda Xitoy, Yaponiya, Singapur kabi Osiyo mamlakatlari hamda Buyuk Britaniya, Germaniya kabi Yevropa davlatlarining tajribasi ko‘plab xorijiy ekspertlar tomonidan tan olindi.

Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish jinoyatiga qarshi kurashish bo‘yicha Yevropa Ittifoqining vakolatli organlari bir qancha rasmiy hujjatlar qabul qilish va ularning ijrosini ta’minlashda dunyo bo‘yicha birinchilar qatorida bo‘lib kelmoqda. Hozirgi kunga qadar ushbu jinoyatni sodir etuvchi shaxslarni aniqlash, ularni topish va jazoga tortishda Yevropa Ittifoqiga a’zo davlatlar o‘rtasida hamkorlik va o‘zaro aloqalarni tashkil etishga bag‘ishlangan 4 ta Direktiva Yevroparlament va Yevropa Ittifoqi Konsuli tomonidan tasdiqlanganligini ko‘rishimiz mumkin. 1991-yilning 10-iyunida Yevroparlament va Yevropa Ittifoqi Konsuli tomonidan “Jinoiy daromadlarni legallashtirish maqsadida moliyaviy tizimlardan foydalanishni to‘xtatish to‘g‘risida” Deriktiva tasdiqlangan bo‘lib, unga ko‘ra barcha a’zo davlatlar o‘z milliy qonunchiligiga ushbu Deriktivani implimentatsiya qilishi jinoiy daromadlarni legallashtirishdan ularning mahalliy moliyaviy tizimlarini himoya qiladi. Yevropa Ittifoqiga a’zo mamlakatlar yuqoridagi Deriktivaga ko‘ra, quyidagilarni o‘zlarining milliy qonunchiligiga implementatsiya qilishi lozimligi belgilangan edi:

– jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish ta’qiqlanishi;

–mijozlar identifikatsiyasi to‘liq tekshirilishi va yozuvlar saqlanishi;

– shubhali oldi-sotdilar tekshirilishi va nazorat qilinishi;

– moliyaviy amaliyotlar bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlar hokimiyatning tegishli vakolatli organlariga shubhalar to‘g‘risida xabar berishi;

– tergov davom etayotgan paytda shubhalar, ya’ni shubhali operatsiyalar haqidagi ma’lumotlar sir saqlanishi;

– har kimning shubha to‘g‘risidagi xabari sirni oshkor bo‘lishidan himoyalanishi;

– muassasalar ichki nazorat va xodimlarga ta’lim berishni talab darajasida saqlab turishlari va bajarishlari lozim [1].

Buyuk Britaniya va Fransiya qomnunchiligida jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashning huquqiy asoslari. Shimoliy Irlandiya va Buyuk Britaniya Qo‘shma Qirolligi jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashda oldingi o‘rinlardan birini egallab kelgan. London butun dunyodagi asosiy moliyaviy markazlardan biri bo‘lgani tufayji ham *“pul yuvish”* uchun juda qulay joy hisoblanadi. Shuning uchun ham Buyuk Britaniya Xalqaro moliya harakati guruhini tashkil etishda asosiy o‘rinni egallagan va o‘z qonunchiligiga jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurash atamasini 1986-yildagi “Giyohvandlik vositalari bilan noqonuniy savdo qilish jinoiyati to‘g‘risida”gi qonunga kiritgan davlat hisoblanadi. Bu Qonun orqali narkotik moddalar muomulasidan olingan jinoy daromadlarni legallashtirishni cheklagan paytida birinchi marta moliyaviy tashkilotning giyohvandlik vositalari mumolasi haqidagi shubhalar va bilimlar haqida hisobotga ehtiyoj sezildi. Dastlab bu vazifa mulohazali va oddiy tuyilgan bo‘lib, ko‘pchilikning fikriga ko‘ra oson emas edi. Ma’lum bir moliyaviy tashkilot mijozlar yoki kelishuv haqida haqiqiy shubhaga borgan taqdirda ham ulardagi ma’lumotlar daromadlar aynan narkotik moddalar savdosidan yoki boshqa jinoyatlardan olingan degan xulosaga kelish uchun yetarli ma’lumotga ega bo‘lmasliklari mumkin edi.

1990-yillarning boshlarida Buyuk Britaniyada “Jinoiy daromadlarni legallashtirish bo‘yicha boshqaruvchi guruh” tuzulgan bo‘lib, ushbu guruhning asosiy maqsadi jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurash bo‘yicha amaliyotni keng targ‘ib qilish va Buyuk Britaniya jinoiy daromadlarni legallashtirishni tartibga solish qoidalarini talqin qilishda amaliy yordam berishdir. 2018-yil 1-iyulidan boshlab, ushbu tuzulma Raisligiga 2 yillik muddatga *Luise Stanvay* tayinlangan. Buyuk Britaniyada jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashni tashkil etish uchun bir qancha qonun va tartibotlar qabul qilinganki, fikrimizcha, ushbu davlatda tahlil qilinaytgan jinoyatga qarshi kurashni ta’minlovchi qonunchilik normalariga to‘xtalmasdan turub, mavzuni yorqin ochib berish mumkin emas.

2000-yilda qabul qilingan “Terroristik faoliyat haqida”gi qonunga ko‘ra, jinoiy daromadlarni legallashtirish bu – agarda shaxs to‘laligicha yoki bir qsimi terroristlarning nazorati yoki tasarrufida bo‘lgan mulkni muomalaga quyidagilardan biri shaklida kiritsa, jinoyatni sodir etgan deb topiladi:

yashirincha;

yurisdiksiyadan tashqarida;

boshqa nomzodlarga (hamkorlarga) o‘tkazish;

boshqa har qanday yo‘l bilan [2].

Xorij tajribasiga e’tibor qaratadigan bo’lsak, Amerika Qo’shma Shtatlarida ushbu sohani tartibga soluvchi bir qancha yakdil qonun hujjatlari mavjud. Jumladan, “Bank siri to’g’risida”gi qonun (Bank Secrecy Act-BSA), Korrupsiyalashgan va reketchilik tashkilotlari to’g’risida”gi qonun (RICO 1978-yil), Pul yuvishga qarshi kurash to‘g‘risidagi qonun (1986-yil), Narkotik moddalarni iste’mol qilishni nazorat qilish to’g’risidagi qonun (1988-yil), “Federal depozitlarni sug’urtalash to’g’risida”gi qonun, “Jamiyatni rivojlantirish qonuni” (Annunzio-Wiley qonuni, 1992-yil) va boshqa tartibga soluvchi hujjatlar mavjuddir [3]. E’tiborli jihati, barcha banklar va moliya tashkilotlari istalgan valyutadagi o’n ming AQSH dollari miqdoridagi barcha bank operatsiyalari, sayyohlik cheklari, pul o’tkazmalari haqidagi ma’lumotlarni doimiy ravishta saqlashlari va yangi mijozlar haqida barcha ma’lumotlarni o’rganib chiqishlari lozim. O’z navbatida, ushbu tartib aviakompaniyalar, moliyaviy kompaniyalar, mehmonxonalar, lombardlar, restoranlar va ulgurji sotuvchilarning operatsiyalariga ham taalluqlidir. Shubhasiz, mansabdor shaxslar va butun jamiyat tomonidan bu kabi omillarga faol munosabatda bo’lish jinoiy faoliyatdan olinadigan daromadlarni legallashtirish jinoyatining oldini olishga xizmat qiladi. Ushbu masalada bir qancha xorijiy davlatlarda ham o’ziga xos tartiblar o’rnatilganiga guvoh bo’lishimiz mumkin. Xususan, Shveytsariya jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurash to’g’risidagi qonunning 9-moddasida keltirilishicha, har qanday taqdirda ham moliyaviy vositachilik bilan shug’ullanuvchilar jinoiy daromadlarni legallashtirish bo‘icha shubha ostida bo’lgan har qanday moliyaviy

operatsiyalar haqida xabar berishlari lozim. Hatto, bunday ma’lumotni taqdim etish majburiyatini buzish beparvolik natijasida sodir qilingan bo’lsa ham ushbu qilmish 200000 Shveytsariya frankigacha jarima bilan jazolanadi. Bu kabi tartiblar va jazo tiziming o’rnatilishi va amaliyotda mustahkam qo’llash mexanizmini ishlab chiqish jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish jarayonini kamaytirishga xizmat qilishi shubhasiz.

Ukraina Jinoyat kodeksining 209 va 209[4]-moddalari tegishli ravishda noqonuniy daromadlarni legallashtirish va ushbu jinoyatning oldini olish hamda unga qarshi kurashish bo’yicha huquqiy normalarga rioya qilmaslik uchun jazo belgilaydi. Shu bilan birga, bunday jinoyatga davlat organlariga majburiy nazoratni talab qiluvchi ro‘yxatga kiritilgan moliyaviy operatsiyalar to‘g‘risida takroran ma’lumot bermaslik yoki yolg‘on ma’lumotlar taqdim etish, shuningdek, ushbu ma’lumotlarga ega bo‘lgan shaxs tomonidan oshkor etilishi kiradi [5].

Estoniya Jinoyat kodeksining 1486-moddasida keltirilishicha, moliya tashkiloti xodimining shaxsni majburiy identifikatsiya qilish talablarini bajarmasligi, shuningdek moliya tashkiloti rahbarining vakolatli davlat organlariga yuzaga kelgan shubhalar haqida xabar bermasligi. yoki moliyaviy tashkilot xodimi tomonidan ushbu organlarga yolg‘on ma’lumotlar taqdim etilganligi yoxud maxfiy ma’lumotlarni ruxsat etilmagan shaxslarga oshkor qilganligi uchun javobgarlikka sabab bo’ladi [6]. 2018-yilning 29-noyabrida Estoniya Moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan qonun loyihasi ma’qullandi, unda moliya sektori tashkilotlari tomonidan FATF qonunchiligini buzganlik uchun jazo choralarini kuchaytirish nazarda tutilgan. Qonun loyihasi jarimalarni sezilarli darajada kuchaytirishni nazarda tutadi: jismoniy va yuridik shaxslar uchun maksimal 5 million yevro jarima belgilanadi.

Argentina Jinoyat kodeksining o‘ziga xos xususiyati shundaki, jinoyatlarni yashirish (277-modda) va jinoiy daromadlarni legallashtirish (278-modda) uchun jinoiy javobgarlikni belgilovchi qoidalar bir bobda joylashgan: “Jinoyatlarni yashirish va jinoiy daromadlarni legallashtirish”. Kodeks, shuningdek ehtiyotsizlik natijasida sodir etilgan pul yuvish uchun jinoiy javobgarlikni belgilaydi (278-

moddaning 2-qismi), ya’ni Argentina jinoyat qonunchiligiga ko’ra, jinoiy daromadlarni legallashtirish ham qasddan, ham ehtiyotsizlik orqali amalga oshirilishi mumkin [7].

Shveytsariya Jinoyat kodeksining 17-bo’limida “Odil sudlovga qarshi jinoyatlar va huquqbuzarliklar” 305 [8]-moddada pul yuvish jinoyat deb nomlanadi. Shunday qilib, Shveytsariya jinoyat qonunchiligi bo’yicha pul yuvish [9] jinoyati obyekti odil sudlov manfaatlari hisoblanadi.

Shveytsariya Jinoyat kodeksining pul yuvish to’g’risidagi moddasi ham kvalifikatsiya belgilarini – shaxsning quyidagi xatti-harakatlari belgilaydi:

a) jinoiy tashkilot a’zosi sifatida;

b) doimiy ravishda jinoiy daromadlarni legallashtirish uchun tashkil etilgan jinoiy guruh a’zosi sifatida;

d) jinoiy daromadlarni legallashtirish natijasida katta miqdorda foyda olganligi (305-moddaning 2-qismi).

Jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish maqsadida Shveytsariya nafaqat bank sohasida, balki butun moliya sektorida “Jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurash to’g’risida”gi qonunini qabul qildi. Uning 9-moddasida moliyaviy vositachilar uchun Shveytsariya Jinoyat kodeksida ko’rsatilmagan qo’shimcha majburiyatni nazarda tutadi, bu pullarni legallashtirishga aloqadorlikda shubha tug’diradigan har qanday operatsiyalar haqida xabar berish hisonlanadi.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlari tajribasini o‘rganish MDH davlatlari uchun katta amaliy ahamiyatga ega. Davlatlararo munosabatlarni yanada rivojlantirish, globallashuv, iqtisodiyotni raqamlashtirish va postsovet hududidagi boshqa jarayonlar muqarrar ravishda jinoyatchilikka, xususan, jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashning samarali jinoiy siyosati sohasida ko’plab muammolarga olib keladi.

Milliy va xorijiy qonunchilik, xalqaro huquq va doktrinologik tadqiqotlar tahlilidan ma’lum bo’lishicha, jinoiy daromadlarni legallashtirishning konseptual apparati umuman shakllanmagan, jinoyatning ta’rifi va tasnifini, obyektini

aniqlashda yagona yondashuv mavjud emas va ushbu toifadagi ijtimoiy xavfli qilmishlarning predmeti aniq belgilanmagan. JK 243-moddasi dispozitsiyasi va sarlavhasida “jinoiy faoliyat” o‘rniga “jinoiy yo’l bilan” iborasini ishlatish. “Jinoyat faoliyati” tushunchasi O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida o‘z aksini topmagan va bu “jinoyat” tushunchasini nazarda tutadi. Shu bilan birga, jinoiy faoliyatni tizimli ravishda jinoyat sodir etish sifatida talqin qilish ehtimoli haqida xavotirlar mavjud. MDH va Yevroosiyo guruhi (EAG) mamlakatlari tajribasini inobatga olgan holda konseptual apparatni birlashtirish maqsadida “jinoiy yo’l bilan” iborasidan foydalanish taklif etiladi.

Biz ayrim olimlarning “jinoiy daromad” tushunchasini “noqonuniy daromad” tushunchasiga almashtirish haqidagi fikrlarini asossiz deb hisoblaymiz. Chunki har ikki tushuncha bir-biridan tubdan farq qiladi va bu tushunchalarni noto’g’ri qo’llash ko’plab muammolarni vujudga keltiradi.

Afsuski, jinoyatchilik hamma mamlakatlarda va hamma davrlarda bo‘lgan. Lekin XXI asrning boshlariga kelib u, dunyo miqyosidagi jarayonlar ta’sirida, o‘ta xavfli ko‘lam kasb etmoqda. Shu sababli xalqaro-huquqiy sohada korrupsiya muammolariga nisbatan yondashuvning o‘zgarishi kuzatilmoqda. Korrupsiyaga qarshi kurashishda O’zbekiston Respublikasi huquqni muhofaza qiluvchi organlari xalqaro-huquqiy hamkorligining asosiy yo‘nalishlari doirasida quyidagi xulosalarga kelindi va quyidagi tegishli taklif va tavsiyalar bildirildi. Birinchidan, mamlakatimizning 2005-yil 16-mayda Polshaning Varshava shahrida imzolangan Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni aniqlash, olib qo‘yish va musodara qilish hamda terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish Yevropa Konvensiyasiga qo‘shilish maqsadga muvofiq. Ikkinchidan, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarini tayyorlash bo‘yicha amaliy choralarni, jumladan:

– korrupsiyaga qarshi kurashishning zamonaviy vositalari va usullaridan foydalanish;

– korrupsiya jinoyatlarini aniqlash, tergov qilish uslubiyotini takomillashtirish;

– murakkab moliyaviy jinoyatlarni tergov qilish, jinoiy daromadlarni legallashtirish sohasidagi ishlarni samarali surishtirish;

– malaka oshirish jarayoniga xalqaro tashkilotlar va xorijiy ekspertlarni jalb qilish orqali takomillashtirish o‘rinli bo‘ladi [10].

Milliy qonunchilik va xalqaro-huquqiy xususiyatga ega bo‘lgan bir qator hujjatlarning (shartnoma, bitim, konvensiya, akt, pakt, bayonnoma, xatlar yoki notalar almashinuvi va h.k. [11]) tahlili shundan dalolat beradiki, aynan O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, huquqni muhofaza qiluvchi organlar orasida jinoyatchilikka qarshi kurashish, jinoyat ishlari bo‘yicha sud ishlarini yuritish sohasida xalqaro hamkorlik, jinoiy ishlar bo‘yicha o‘zaro huquqiy yordam, ekstraditsiya, ushlab berish, tutib topshirish (ekstraditsiya), ozodlikdan mahrum etilgan shaxslarning jazoni o‘tashni davom ettirishi uchun o‘tkazish (topshirish), mahkumlarni topshirish, shaxslarni xalqaro jinoyat sudiga berish hamda ruhiy holati buzilgan shaxslarni majburiy davolash uchun O‘zbekiston Respublikasi tomonidan berish va qabul qilish ishlarini tashkil etish masalalari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining maxsus vakolatli organi sifatida xalqaro-huquqiy munosabatlarga kirishadi va katta hajmdagi protsessual, tashkiliy-huquqiy va uslubiy ishlarni amalga oshiradi, muvofiqlashtiradi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi prokuratura organlarining jinoyatchilikka, xususan korrupsiyaga qarshi kurashishdagi xalqaro-huquqiy hamkorligida globallashuv davri nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda xorijiy mamlakatlarning tegishli huquqni muhofaza qiluvchi idoralari bilan yangi yo‘nalishdagi hamkorligini yo‘lga qo‘yishga zarurat paydo bo‘lmoqda. Bunda: birinchidan, san’at buyumlarining kontrabandasiga qarshi kurash sohasida xalqaro hamkorlik masalalari fikrimizga misol bo‘la oladi [12]. Chunki, bugungi kunda aynan san’at buyumlarining himoyasini xalqaro darajada ta’minlash, ularning noqonuniy aylanmasiga qarshi kurashish sohalaridagi faoliyat nafaqat bojxona organlarining, balki prokuratura organlarining ham nazorat obektlaridan biriga aylanmoqda. Mazkur yo‘nalishda manfaatdor idoralar va xalqaro tashkilotlar (Jahon Bojxona Tashkiloti, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi

Bojxona qo‘mitasi, Madaniyat va turizm vazirligi hamda Buyuk Britaniyaning vakolatli organlari) o‘rtasida o‘zaro hamkorlik memorandumini imzolash taklif etiladi; ikkinchidan, hujjatlarni soxtalashtirish, odam savdosi, korrupsiya kabi jinoyatlarga qarshi kurashish sohalarida hamkorlik aloqalarini yanada rivojlantirish va bu yo‘nalishlarda prokuratura organlari xodimlarining kasbiy tayyorgarligini oshirish sohasida hamkorlik qilish tavsiya etiladi.Shu o‘rinda, fikrimizcha, MDHga a’zo davlatlar Moliyaviy razvedka bo‘linmalari rahbarlari kengashi ishtirokchilariga strategik va taktik ma’lumotlar bilan almashish imkoniyatini beradigan, shuningdek jinoiy daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bilan bog‘liq bo‘lgan xavflarni qisqartirish bo‘yicha qo‘shma chora-tadbirlarni amalga oshirishga xizmat qiladigan Jinoiy daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirish xatarlarini baholash bo‘yicha xalqaro markazni ochish maqsadga muvofiq. Chunki, Yevroosiyo mintaqasida jinoiy daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bilan bog‘liq muhim masalalar, shuningdek mazkur sohadagi milliy tizimlarni mustahkamlash maqsadida xalqaro hamkorlikni kuchaytirish bugungi davr talabidir. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining bu kabi xalqaro tashkilotlardagi faoliyatining jadallashuvi jinoiy daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasidagi milliy tizim salohiyatini oshishiga, xalqaro va mintaqaviy hamkorlikning kuchayishiga xizmat qiladi. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi prokuratura organlarining korrupsiyaga oid jinoyatlarni tergov qilish va o‘g‘irlangan aktivlar (mulklar)ni qaytarish yuzasidan xalqaro hamkorligini yanada rivojlantirish maqsadga muvofiq. Mazkur yo‘nalishda Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotining Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo davlatlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashish tarmog‘i, “Egmont” guruhi, EAG va FATF kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan ilgari suriladigan loyihalar va xalqaro standartlar ijobiy samara beradi.

Yevropa Ittifoqining “Jinoiy daromadlarni legallashtirish maqsadida moliyaviy tizimlardan foydalanishni to‘xtatish to‘g‘risida”gi ikkinchi Deriktiva 2002-yilda, uchunchi Direktiva esa 2006-yilda milliy qonunchilikka implimentatsiya qilindiki, buning natijasida oldingi bobda ta’kidlangan normalar Buyuk Britaniya hududida ham amalga kiritilganligini ko‘rishimiz mumkin. Jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashni tashkil etuvchi navbatdagi hujjat – bu 2003-yilda qabul qilingan va keyinchalik bir necha o‘zgartirishlar kiritilgan “Jinoiy daromadlarni legallashtirish qoidalari” bo‘lib, ushbu hujjatning alohida jihati shundaki, u barcha subektlarni qamrab olmagan, ya’ni quyidagi subektlarga nisbatan identifikatsiya o‘tkazish, u bilan bog‘liq bo‘lgan bitimni besh yil davomida saqlash nazorat va ro‘yxatdan o‘tish kabi majburiyatlardan ozod qilingan:

Shotlandiyaning Bosh Auditori;

Uelsning Bosh Auditori;

Angliya Banki (rahbari);

Boshqaruvchi va Bosh Auditor (Angliya uchun);

Shimoliy Irlandiyaning Boshqaruvchisi va Bosh Auditori;

Oliy sudning rasmiy vasiysi, Oliy sudning vakolatli vakili sifatida ish yuritganda;

Xazina sudlanuvchisi.

Navbatdagi tahlil etilishi lozim bo‘lga davlat – bu Fransiya Respublikasi bo‘lib, Bazel qo‘mitasi tomonidan tayyorlangan 2017-yilgi statistik ma’lmotlarga ko‘ra, Fransiya 2017-yilda 146 ta davlat ichidan 4.52 ball bilan 128 o‘rinni egallagan hamda Xalqaro moliya harakati guruhining “qora” ro‘yxatidan o‘rin olmagan. Shu o‘rinda Bazel Qo‘mitasi baholash tizimiga to‘xtalib o‘tsak, unga ko‘ra mamlakatda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish jinoyatining soni qanchalik kam bo‘lsa, shuncha kichik ball qo‘yiladi, ya’ni ball qancha kichik bo‘lsa, mamlakatda vaziyat shuncha yaxshi ekanligini anglatadi. Yuqoridagi ma’lumotlardan bilishimiz mumkinki, Fransiya hukumati jinoiy

daromadlarni legallashtirish jinoyatiga qarshi kurashishda boshqa davlatlardan qolishmaydi.

Germaniya Yevropa Ittifoqining yetakchi davlatlaridan biridir. Ushbu davlat Yevropa Ittifoqi barcha Deriktivalarining unda ta'kidlangan muddatlarda milliy qonunchilikka implimentatsiya qilishga harakat qiladi. Buning natijasida milliy iqtisodiyotini jinoiy daromadlarni legallashtirish natijasida jalb qilinishi mumkin bo'lgan kapitaldan asosli ravishda himoya qilishini ko'rishimiz mumkin. 2016-yilning 26-iyunida Yevropaning Jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurash to'g'risidagi to'rtinchi Deriktivasini Germaniya milliy qonunchiligiga implimentatsiya qilindiki, natijada Jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurash to'g'risidagi qonunga bir qancha o'zgartirishlar kiritildi. Ushbu qonun jinoiy daromadlarni legallashtirish jinoyatiga qarshi kurashni ta'minlovchi asosiy qonun hujjati bo'lganligi sababli unga atroflicha to'xtalishni lozim deb topdik.

Germaniya Jinoyat kokeksining 261-moddasi jinoiy daromadlarni legallashtirish va daromadlarni qonundan yashirish jinoyatiga quyidagicha: "Noqonuniy xatti-harakatlardan kelib chiqqan mulkning har qanday shaklini yashirgan, mulkning kelib chiqishini yashirgan, mulkni topish, musodara qilinishiga qarshilik qilgan har qanday shaxsga uch oydan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi beriladi", deb ta'rif berilganligini ko'rishimiz mumkin. Ushbu normada ta'kidlangan noqonuniy xatti-harakatlar deyilganda, uncha og'ir bo'lmagan va og'ir jinoyatlar kiradi. Agar shaxsning harakatlari soliqdan qochish, soliqni yashirish bilan bog'liq bo'lsa, shaxs asosiy jazo bilan bir vaqtning o'zida qo'shimcha tariqasida to'lanmagan soliqni ham to'lashi shart.

Jinoiy daromadlarni legalashtirishga qarshi kurash to'g'risidagi qonunning 2-moddasida quyidagi subektlar jinoiy daromadlarni legallashtirish jinoyatiga oid shubha paydo bo'lganda Germaniya Federal jinoyat Politsiyasining Moliyaviy razvedka bo'limiga xabar berishi belgilangan:

1) kredit tashkilotlari;

2) moliyaviy xizmatlar muassasalari;

3) moliyaviy korxonalar;

4) sug‘urta kompaniyalari;

5) sug‘urta vositachilari;

6) aktivlarni boshqarish kompaniyalari;

7) advokatlar palatasi a’zolari, advokatlar va notariuslarning advokatlari, yurist maslahatchilari, o‘z mijozlari uchun quyidagi operatsiyalarni rejalashtirishda yoki amalga oshirishda ishtirok etganda:

a) ko‘chmas mulkni yoki tijorat korxonalarini sotib olish va sotish;

b) pul, qimmatli qog‘ozlar yoki boshqa aktivlarni boshqarish;

d) bank, jamg‘arma yoki qimmatli qog‘ozlar hisobini ochish yoki boshqarish;

e) kompaniyalarni yoki shirkatlarni tashkil etish, ular faoliyatini boshqarish yoki boshqarish maqsadida mablag‘larni tashkil etish;

f) banklar, shirkatlar va shunga o‘xshash tuzilmalarni yaratish yoki boshqarish; yoki ularning mijozlari nomidan va hisobidan moliyaviy yoki ko‘chmas mulk bilan bog‘liq operatsiyalarni amalga oshirayotgan bo‘lsa;

8) auditorlar, ustavlar, soliq maslahatchilari va soliq agentlari;

9) ko‘chmas mulk bo‘yicha agentlar;

10) kazinolar;

11). onlayn qimor o‘ynash operatorlari va brokerlari;

12) tovarlar savdosi bilan shug‘ullanadigan jismoniy yoki yuridik shaxslar.

Xulosa qilib aytganda, bizning fikrimizcha, jinoiy yo’l bilan olingan pul mablag’larini fuqarolik muomalasida bo’lishi taqiqlangan mol-mulklarni olish uchun o’tkazish, shuningdek, shu maqsadda moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish bilan jinoiy daromad qonuniy bo’lib qolmaydi.

Yagona ma’lumotlar bazasini yaratish hamda jinoiy daromadlarni legallashtirishga oid operatsiyalarni aniqlash va ularga chek qo‘yish imkoniyatlarini takomillashtirish maqsadida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga oid axborot va ma’lumotlar almashinuvi sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

Xalqaro hamkorlik umumiy huquqiy tushunchalar va kelishuvlarga asoslanishi kerak, bunda o‘zaro yordamni maksimal qamrab olish, jumladan, birgalikda tergov va noqonuniy mablag‘lar harakatini nazorat qilish kerak.

Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi samarali kurashish va xalqaro hamkorlik tizimini mustahkamlash uchun jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassislarning kasbiy mahorati va malakasini oshirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Doug Hopton “Money laundering a concise guide for all business” printed and bound in Great Britain by MPG Books Ltd. Bodmin, Cornwall, 2006 year.
2. “Terroristik faoliyat haqida”gi 2000-yilda qabul qilingan Qonunning 18-moddasi. Manbaa: https://www.legislation.gov.uk/ukpga/2000/11/pdfs/ukpga_20000011_en.pdf
3. Законодательство США: нормативно-правовые акты США [Электронный ресурс]. URL: http://www4.law.cornell.edu/uscode/18.html
4. Законодательство США: нормативно-правовые акты США [Электронный ресурс]. URL: http://www4.law.cornell.edu/uscode/18.html
5. Уголовный кодекс Украины / под ред. В.Я. Тация, В.В. Сташиса. СПб.: Юрид. Центр Пресс, 2001.
6. Уголовный кодекс Эстонской Республики / под ред. и пер. с эст. В.В. Запевалова;вступ. ст. Н.И. Мацнева. СПб.: Юрид. центр Пресс, 2001.
7. Официальный сайт Министерства юстиции Республика Аргентина– .http://servicios.infoleg.gob.ar/infolegInternet/anexos/150019999/16546/texact.htm
8. Legislationline.org – портал законодательства региона ОБСЕ / Уголовное законодательство / Уголовный кодекс Швейцарской Конфедерации 1937 года. http://www.legislationline.org/documents/section/criminal-codes
9. Закон об отмывании денежных средств Швейцарии (Geldwдschereigesetz) http://www.worldbiz.ru/jurisdiction/switzerland/

10. BMTning 2015-yildagi “Ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni hal qilish va milliy va xalqaro miqyosda qonun ustuvorligini targ‘ib qilish maqsadida, jinoyatchilikning oldini olish va jinoiy odil sudlov masalalarini BMTning kun tartibiga kiritish to‘g‘risida”gi Doha deklaratsiyasi // URL: https://www.unodc.org/documents/congress/Declaration/V1504153_Russian.pdf.

11. 2021-yildagi “Favqulodda vaziyatlar, inqirozni boshqarish, ulardan keyin tiklanish bosqichida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash to‘g‘risida”gi Sharm Al-Shayx deklaratsiyasi // URL: https://www.unodc.org/documents/treaties/UNCAC/COSP/session9/CAC-COSP-2021-17/V2200116_R.pdf;

12. Rakhimov, F. Kh, and D. D. Valijonov. “Some Issues of Improvement of the International Cooperation of Prosecutors Office of the Republic of Uzbekistan Under Digital Globalization.” 2nd International Scientific and Practical Conference “Modern Management Trends and the Digital Economy: from Regional Development to Global Economic Growth” (MTDE 2020). AtlantisPress, 2020.

13. Money laundering regulation 2007 year. Manbaa: http://www.legislation.gov.uk/uksi/2007/2157/pdfs/uksi_20072157_en.pdf

14. Criminal code of Germany 261 article resourse: https://ec.europa.eu/anti-trafficking/sites/antitrafficking/files/criminal